


**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2020- yil yanvar-aprel)*


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2020- yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1 949,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 8,7 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 200,0 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 16,9 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 749,6 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 7,6 % ga kamaygan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 199,2 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 9,3 % ga kamaygan) tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2019- yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining pasayish sur'atlari kuzatildi. Nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxtako'pir, Mo'ynoq, Qo'ng'iro't va Shumanoy tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, (% da)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulush Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,2 %), Xo'jayli (9,9 %), Beruniy (9,6 %), To'rtko'l (8,5 %) va Qo'ng'iro't (7,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga kamaydi va 200,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,3 % iga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 1 749,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 7,6 % ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,7 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (% da)**

2019- yil  
yanvar-aprel




2020- yil  
yanvar-aprel



- Yirik korxonalar
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (% da)**



- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
- Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,8 %), Kegayli (99,6 %), Shumanoy (99,6 %) va Qorao'zak (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (26,6 %), Taxiatosh (15,7 %) va Qo'ng'iro't (8,2 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>199 984,3</b>	<b>83,1</b>	<b>1 749 616,3</b>	<b>92,4</b>
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Amudaryo	4 663,5	72,3	132 834,1	90,9
Beruniy	3 653,3	88,5	184 281,8	87,9
Bo'zatov	-	-	8 174,9	90,5
Qonliko'l	75,7	60,1	48 782,2	92,3
Qorao'zak	214,8	98,3	61 081,6	92,9
Kegayli	169,7	63,5	43 873,6	90,6
Qo'ng'iro't	11 900,9	2,2 b.	133 705,3	89,5
Mo'ynoq	83,5	30,8	13 486,5	97,3
Nukus	239,8	104,6	35 036,5	87,5

Taxiatosh	7 328,5	83,6	39 460,9	91,6
Taxtako'pir	1 049,1	16,6	48 773,8	107,6
To'rtko'l	6 060,7	35,5	159 319,7	92,6
Xo'jayli	3 184,6	84,3	190 482,9	92,3
Chimboy	2 621,0	43,4	69 593,1	94,8
Shumanoy	157,0	47,4	41 202,0	94,2
Ellikqal'a	2 000,4	98,6	107 113,2	90,5
Nukus sh.	156 582,0	87,3	432 414,3	94,8

2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 1 025,5 ming so'mni tashkil qilib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 10,0 % ga kamaygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning yanvar-aprel oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan respublikamizning Amudaryo, Beruniy, Nukus va To'rtko'l tumanlaridan tashqari barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (1 838,9 ming so'm), Xo'jayli (1 577,1 ming so'm) va Taxtako'pir (1 242,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Bo'zatov (378,5 ming so'm), Mo'ynoq (425,4 ming so'm) va Kegayli (607,5 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	<b>Hajmi</b> (Ming so'm)	<b>2019- yilning mos davriga nisbatan, % da</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 025,5</b>	<b>90,0</b>

*Shahar va tumanlar:*

Amudaryo	689,2	88,3
Beruniy	980,4	86,2
Bo'zatov	378,5	90,1
Qonliko'l	958,0	91,2
Qorao'zak	1 160,9	92,2
Kegayli	607,5	89,7
Qo'ng'iro't	1 119,2	92,9
Mo'ynoq	425,4	94,2
Nukus	701,3	85,8
Taxiatosh	633,1	89,0
Taxtako'pir	1 242,5	96,0
To'rtko'l	770,6	85,8
Xo'jayli	1 577,1	91,0
Chimboy	642,5	90,0
Shumanoy	735,9	92,9
Ellikqal'a	684,5	88,9
Nukus shahri	1 838,9	91,3


Jumladan, 2020- yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 43,9 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 83,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2020- yil yanvar-aprel)*

2020- yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 544,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 9,5 % ga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra 348,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 12,4 % ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 64,0 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

**Yirik korxonalar va kichik biznes subyektlarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (% da)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 36,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Xo'jayli tumanida (jamiga nisbatan ulushi – 94,4 %), Nukus shahri (28,8 %) va Amudaryo tumanida (5,8 %) kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>544 217,6</b>	<b>90,5</b>	<b>195 989,7</b>	<b>96,0</b>	<b>348 227,8</b>	<b>87,6</b>
<i>Shahar va tumanlar:</i>						
Amudaryo	7 981,7	175,2	460,8	183,8	7 520,9	174,7
Beruniy	25 306,3	95,9	-	-	25 306,3	95,9
Bo'zatov	753,5	92,5	-	-	753,5	92,5
Qonliko'l	7 835,2	138,6	-	-	7 835,2	138,6
Qorao'zak	5 460,3	4,7 b.	-	-	5 460,3	4,7 b.
Kegayli	518,0	139,4	0,6	117,7	517,4	139,4
Qo'ng'iro't	14 920,3	132,1	-	-	14 920,3	132,1
Mo'ynoq	1 352,7	2,6 b.	-	-	1 352,7	2,6 b.
Nukus	33 083,4	74,9	-	-	33 083,4	74,9
Taxiatosh	8 003,8	81,5	193,2	58,9	7 810,5	82,2
Taxtako'pir	3 509,5	100,1	-	-	3 509,5	100,1
To'rtko'l	28 121,7	146,7	0,8	0,1	28 120,9	157,8
Xo'jayli	132 327,8	124,2	124 861,7	125,3	7 466,1	108,9
Chimboy	7 271,2	103,7	-	-	7 271,2	110,3
Shumanoy	171,6	159,5	0,4	15,2	171,2	163,1
Ellikqal'a	23 225,1	81,8	-	-	23 225,1	81,8
Nukus sh.	244 375,6	73,6	70 472,2	68,9	173 903,4	75,7

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (% da)**



Ulgurji tovar aylanmasida 2019- yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'zgarish sur'atlari Nukus shahrida (73,6 %), Nukus (74,9 %), Taxiatosh (81,5 %), Ellikqal'a (81,8 %) va Bo'zatov (92,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: 71 230-82-06**